

JISMONIY MADANIYAT VA SPORTDA PSIXALOGIK-PEDOGOGIK MULOQAT MADANIYATI

Haydarova Zebogul Komiljon qizi

*Qaraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, Sport turlari fakulteti,
"Badiiy gimnastika" yo'nalishi 3-kurs talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8396847>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy madaniyat va sportda psixalogik-pedagogik muloqat madaniyati haqida mulohazalar keltirib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Sport, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Pedagogika fani konsepsiyasi", ta'lim-tarbiya, "Sport psixologiyasi", psixalogik-pedagogik muloqat.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Pedagogika fani konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xalq ta'limi vazirligining ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalaridagi umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish borasidagi fikrlari, yondashuvlari, ilmiy pedagogik, psixologik, metodik manbalardan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

O'zbek xalqi, o'z madaniyatini, jumladan, jismoniy madaniyatini ham qadim zamonlardayoq vujudga keltirgan. Chunki tarixiy zarurat nihoyatda ongli, aqlli, bilimli, jismoniy va ruhiy jihatdan barkamol, matonatli, qo'rqmas, botir yigitlarni tarbiyalashni talab qilar edi. Endi shu urinda aytish kerakki jismoniy madaniyat bu umumiy madaniyatning bir qismi bolib, umum insoniy va marfo funksiyalar husuiyatlarni o'zida mujassam qilib insonlarni sog'ligini mustahkamlashga komil inson qilib vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Shuning uchun jismoniy madaniyat va sportning alohida turlari uchun yangi psixologik uslublardan foydalanish kerak bo'ladi. Sport faoliyatining asosini jismoniy madaniyat mashg'ulotlari va sport musobaqalari tashkil etadi. Shuning uchun ham "Sport psixologiyasi" fanining asosiy vazifalaridan biri sportchilarni sport musobaqalarida qatnashishga tayyorlashdan iborat. Jismoniy madaniyat va sport psixologiyasi fani sportchilarning ruhiy xususiyatlari, temperamenti, xarakteri, qobiliyati va ruhiy jarayonlarining barqaror xususiyatlarini, e'tiqodi, bilimi, sportchiga xos jangovarlik holati, startdan oldingi va musobaqadan keyingi holati, ko'nikmasi, malakasi hamda sportchiga xos xulq-atvor va odatlarni o'rganadi.

Buyuk olim Ibn Sino jismoniy mashq bilan muttasil shug'ullanadigan kishining ruhi sog'lom, organizmi juda mustahkam bo'lib, har qanday kasalliklarni yengib o'tishga qodir bo'lishini isbot qilishga harakat qildi. Ibn Sino shaxs kamolotida jismoniy

tarbiyaning beqiyos ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlar ekan faqat jismoniy mashqqa ta'rif beribgina qolmasdan, uning har xil turlari borligini va ulardan qanday foydalanish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. U jismoniy mashg'ulotning kishi organizmi uchun foydasi katta ekanligini, mashg'ulotlarga shaxsning ish jarayonida bajaradigan harakatlari va maxsus jismoniy mashq harakatlari ham kirishini uqtirib o'tadi. O'rta asr sharoitida buyuk mutafakkirning jismoniy tarbiya sohasidagi qarashlarni tabiiy-ilmiy jihatdan asoslab berishi o'sha davrga nisbatan juda katta ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, uning jismoniy tarbiya to'g'risidagi ko'pgina fikrlari hozirgi davrda ham o'z kuchini yo'qotgan emas.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan og'zaki yoki yozma nutqi. Og'zaki hamda yozma nutq og'zaki yoki yozma matn shaklida ifodalanadi. Muloqot shaxslararo o'zaro fikr almashinish vastasidir. Muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi, "Shahslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y-fikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Muloqot va muomala jarayoni ham o'ziga xoslikka ega bo'lgani holda o'qituvchidan turli xil xolatda muloqotga kirishishini talab etadi.

O'qituvchining muloqot madaniyati bir kunda, yoki bitta fanni o'qitish bilan chegaralanmaydi. U shunday murakkab xususiyatga egaki, ko'chuvchan, ohandor, muloyimlik, qat'iylik, ta'kidlovchi, yalinuvchi, egiluvchanlik, mulohazalilik talab etadi. Shuning uchun sport murabbiylari o'z muloqot madaniyatida muloqot olib borayotgan sportchining individual psixik xolatlarini, muloqot mavzusidagi muammoning mohiyatini to'la anglagani holda muloqotga kirishishi lozim.

Biz o'z kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki o'qituvchi har qanday vaziyatda holatda ham o'qituvchi sifatida muloqot olib borilayotgan ob'ektlarning psixologik xolatlarini hisobga olsagina o'zida shakllangan muloqot madaniyatini yana ham yuksaltirar ekan. Shu bilan birga o'qituvchi mehnati qanchalik serqirra bo'lmasin baribir u o'zida muloqot madaniyatini rivojlantirib borishi uchun muntazam badiiy adabiyot o'qib borishi, tajribali pedagoglarning muomala va muloqot jarayonlarini muntazam kuzatib borishlari lozim ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "Kamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin". T., O'zbekiston, 2001, 30b
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997, 3160b
3. Masharipov Y.M. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2009, – 145 bet.